

## NODIRA: “JAHON BOG‘IDA MAKNUNA QALAMINING TILI TOZA GULDIRKI, U VAFO AHLINING XURSANDCHILIK BARGIDIR”

*O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi  
Davlat adabiyot muzeyi tadqiqotchisi  
Nurutdinova Malikaxon Sharabovna  
malika122yun@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining yirik vakilasi, shoira Nodira ijodi haqida fikr bildiriladi. Adabiyot gulshanida har gulning o‘z ifori bo‘lganidek, bu shoiralarning hayot saboqlaridan iborat ijodlari davr osha kelajak avlod uchun badiiy tafakkur mahsulidir. Ular bilan tanishar ekansiz she‘riyatimizning nafosatini yana bir muhim qirralari haqida bilimga ega bo‘lasiz. Ijodiy qirralaridan bahramand bo‘lasiz.

**Kalit so‘zlar:** mumtoz, jahon bog‘i, tili toza, toza gul, vafo ahli, xursand, qurratul ayn, farzand, tal’ati, qiyofa, siymo, jannatdan nishon, mah.

**Аннотация:** В данной статье выражено мнение о творчестве поэтессы Нодир, крупной представительницы узбекской литературы. Как каждый цветок имеет свое выражение на клумбе литературы, так и произведения этих поэтов, состоящие из жизненных уроков, являются продуктом художественного мышления будущего поколения. Познакомившись с ними, вы получите знания еще об одном важном аспекте изящества нашей поэзии. Вы будете наслаждаться своей творческой стороной.

**Ключевые слова:** классика, мировой сад, чистый язык, чистый цветок, верные люди, счастливый, счастливый, ребенок, талант, образ, имидж, дар небес, мах.

**Annotation:** In this article, an opinion is expressed about the work of poetess Nodira, a great representative of Uzbek literature. Just as each flower has its own expression in the flower bed of literature, the creations of these poets, consisting of life lessons, are the product of artistic thinking for the future generation. As you get acquainted with them, you will gain knowledge about another important aspect of the elegance of our poetry. You will enjoy your creative side.

**Key words:** classic, world garden, clean language, clean flower, loyal people, happy, happy, child, talent, image, image, gift from heaven, mah.

Nodira kuylagan va sharaflagan sevgi bu hayotiy sevgi, insonni insonga bo‘lgan sevgisidir. Sevgi toza qalbga xosdir. U kishini kamolotga yetkazadi, hayotini fayzli nurga to‘ldiradi. Vafo, sadoqat, hamdamlik, mushtoqlik, to‘g‘rilik va halollik uning shartidir. Nodira: “Jahon bog‘ida Maknuna qalamining tili toza guldirki, u vafo ahlining xursandchilik bargidir”- deb xitob etadi. **Jahon bog‘i, Maknuna qalami, tili toza, toza gul, vafo ahli, xursandchilik bargi-** kabi tashbihlar sevgi va hayot tushunchasini jozibali

qilib ifodalashga xizmat qilgan. Tashbihlarning ketma-ket qo‘llanilishi Nodira o‘ziga ustoz deb bilgan Alisher Navoiy bilan hamohang fikrlashidan darakdir. Sevgi yo‘lida shoh ham, gado ham tengdir- deb Alisher Navoiy ham o‘zining quyidagi baytida aytadi:

*Ishq yo‘lida shoh-u gado tengdur, gado balki fuzun,  
Gar gadolig‘ aylar o‘lsa ishqning yag‘mosidin.*

Alisher Navoiy ham ishqni hoy-u havas deb emas, aksincha inson hayotining ajralmas yo‘ldoshi, qalb va irodaning amri deb biladi. Nodira va Navoiyning lirik qahramoni yorini ulug‘laydi va ardoqlaydi. U butun hayotini va qalbini bitta suyukli yorga bag‘ishlaydi.

**Baxtsizlik yulduz yurishidan bo‘lganidek, guryon ko‘zdagi yoshlardan umrim oyog‘i loyga botdi.**

Bu g‘amiyda ko‘z dil uyining darichasidir, yuzing oftobidan bu dil uyi munavvar bo‘libdi.<sup>1</sup>

Albatta Nodira o‘ta zakiy ayol bo‘lgan. U hayotni go‘yo bozorga o‘xshatadi. “Рухи чу субҳи ту хуршеди олами болост”[198-bet] deb nomlangan g‘azalni maqta’sida:

*Забони хомаи Макнуна дар хадиқаи даҳр,  
Гулест тоза ки барги нишота аҳли вафостю  
O‘zbekchasi:*

**Jahon bog‘ida Maknuna qalamining tili toza guldirk, u vafo ahlining xursandchilik bargidir-**deb mubolag‘a qiladi.

Hijronning achchiq uqubatlarini hamma ham his qilavermaydi. Hijron shunchaki ayriliq, kimnidir bir vaqt ko‘rmay qolish, yoki oddiy sog‘inch emas. Aksincha, sog‘inch va diydor talabining o‘ziga yarasha azob va qiynoqlari bor. Nodira birga yashab turgan tayanchini, yashashga umid berib turgan, butun vujudi bilan bilan talpinib turgan insonidan turmush o‘tog‘i Umarxondan ayrildi. Ayriliqning nihoyasiz sho‘mlari ko‘nglidagi orzu-umid chiroqlari so‘ndi. Achchiq-achchiq ko‘z yosh to‘kishdan boshqa chorasi qolmadi. **Uning tarji‘bandida:**

*Sen erding jahon ichra davlat bila,  
Visolingda erdim saodat bila.  
Qading sarvi xuld ichra qildim xirom,  
Ko‘ngul qoldi sho‘ri qiyomat bila,  
Chun man hajr vodiysida qolmisham,  
Firoq ilgida yuz nadomat bila,  
Duolar tilab ruhi poking uchun,  
Ishim bo‘ldi xayru saxovat bila,  
Saxovat ishim xayrdur odatim,  
Seni izlaram ushbu odat bila,  
Sipohu raiyatni tahqiq etib,*

---

<sup>1</sup> O‘sha kitob 167-bet

*Jahon ichra qoldim mashaqqat bila.  
Meni saltanat masnadida ko‘rub,  
Gumon etma ayshu farog‘at bila,  
Visolingdin, ey jon, topolmay so‘rog‘,  
Nelar tushti boshing‘a sendin yirog‘. [Devon 231-bet]*

Ayriliq va hijron dardini tortgan insonga sabrning achchiq sharbati ham foyda bermaydi. U yor uchun xayr saxovatni odat qilib, duolar olib ko‘ngliga taskin qidiradi. Meni saltanat taxtida ko‘rganlar, aysh-u farog‘atda ekan, deb gumon etmang. Yuqoridagi baytda hayot va o‘lim haqidagi falsafiy qarashlarini bayon etadi.

**Tarji‘bandning** har biri g‘azalga tengdir. Tarji‘bandning hajmi 11 bandli ( 8,9-baytli) falsafiy-axloqiy mavzuda yozilgan. *Visolingdin, ey jon, topolmay so‘rog‘,*

*Nelar tushti boshing‘a sendin yirog‘.* Barcha bandlarni oxirida mustaqil qofiyalanuvchi bir bayt takrorlanib kelgan hamda shoiraning g‘azalda ilgari surgan asosiy g‘oyasini namoyish etib turgan. Nodira bu san‘atning turidan foydalanib o‘zining lirik kechinmalarini, hayoti davomida sodir bo‘lgan voqea va xodisalarni, xilma-xil tuyg‘ularini, hissiyot olamini tasvirlab bera olgan asardir. 10 bandida:

*Bo‘lub arg‘uvoni yuzum zafaron,  
Alif qomatim bo‘ldi hajr ichra dol.  
Bu farzandlarkim beribdur xudoy,  
Nasib aylagay har biriga kamol.  
Xususanki, ko‘z nuri Xon shahriyor,  
Xudo aylagay davlatin bezavol,  
Muhammad Aminxon nodirg‘a shukr,  
Bo‘lib badri tobon bu navras hilol.  
Shifo topdi Valna‘mi Sul-ton baxayr,  
Ki bor edi ko‘ngulda andin malol. [234-bet].*

Nodiraning she‘rlarida bir qancha voqealar berilgan. Masalan uning devonini 131 g‘azalida o‘g‘li Sul-ton Mahmudxon sariq kasaliga duchor bo‘lib sog‘ayishini shunday ifodalaydi:

Lillahul hamdki az xosiyati davlati xon,  
Ofiyat topdi chechakdin Valna‘mi Sul-ton.

#

Mamlakat vorisi shahzodai oliy gavhar,  
Qurratul ayni jigarbandi amiri davron.

Shoira ko‘z qorachig‘i, malakatning egasi oliy nasab jigarbandlari amir Umarxon vorislarini haqida so‘zlaydi.

Valna‘mini kamolig‘a yeturgil yo rab,  
Qildi olamni mahi tal‘ati firdavnishon.

#

To jahon boricha bo'lg'ay bu ikkovlon jovid,  
Bo'lmasun bir nafas olamda bularsiz davron.

#

Bu ikav davlatig'a shukr qilar Nodirakim,  
Qoldi ko'nglumda birov hasratidin yuz armon.

#

Yana "Ey sarvi ravon" g'azallar majmuasida Komila taxallusi bilan "Ul janobi davari davrong'a bandalig'" deb boshlanuvchi radifli g'azalida ham shunday:

Xon hazratimni ikki azizi mukarrami,  
Valna'mi birla Muhammad Aminxonga bandalig'.

#

Mayusu mustamandu muhaqqar g'ulomdin,  
Davlat sipehrida mahi tobong'a bandalig'.

"Nodira-Komila"( ikkinchi kitobi) 2004-yili devoni qo'lyozmasini Maxbuba Qodirova nashrga tayyorlagan "Чашми бақо чи дорам аз чархи кинапарвар" deb nomlanuvchi 61 g'azali 4 baytida:

Tojikcha:

Пўшид чашм сад шукр, к-аз баъди ў дар айём,  
Шуд нури дидаи ў имруз зеби манзар.

O'zbekcha:

Ko'zlarini yumdi, yuz shukrki undan keyin olamda

Uning ko'zining nuri diydasi bugun saroyning bezagi bo'ldi. Tojik tilidagi 308 g'azalida:

Зи хичронат ба дарду ғам гирифторамчй мепурсй

Ба доғи ишқ ҳамчун лола афгорам чй мепурсй

O'zbekcha tarjimasi:

Nega dard va qayg'udan azob chekayotganimni so'rayapsiz

Loladek ishq dog'igan nima so'rayapsiz?<sup>2</sup> Deb iddao qiladi.

Tojikcha:

Ба ғурбатам чу ватан роҳате бувад, акнун

Зи нолаҳои дили зору беқарор чи миннат.

#

Ба сад забон зи қафо шиква мў ба мў дорй

Зи шонае ба сари зулфи тор-тор чи миннат.

O'zbekcha:

**Hijronning g'amida yig'layverib ikki ko'zim oqargan** (ko'r bo'lgan), endi xirom qilib kelishing va uchrashingdan nima minnat?

---

<sup>2</sup> M.Qodirova tojik tilida nashr "Nodira" devoni 1967 yil "Irfon" nashriyoti Dushanbe shahari 351- bet. 308-beti.

#

**G‘aribligim menga vatandek rohatdir**, endi zoru beqaror ko‘ngilning nolasidan nima minnat? -deb Nodira irodali ayol ekanini bildiradi.

**Lug‘at**

**Qurratul ayn**- ko‘z qorachig‘i, farzand.

**tal‘ati**- qiyofa, siymo

**firdavnishon**-jannatdan nishon

**mah**-oy,go‘zal yor, mahbuba

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nodir. Haft gulshan ( Yetti gulshan).T.,O‘zfanakadnashr,1961.214 bet.( O‘z SSR Fanlar akademiyasi. A.S.Pushkin nomidagi Til va adabiyot in-ti) Tit. v.rus va o‘zbek tillarida.766 inv raqami.
2. Qodirova M. **Dilshod**.( Hayoti va ijodi).T., “Fan” 1971. 88-bet.
3. Mahbuba Qodirova She‘riyat va muhabbat malikasi;Risolası.\\Mas‘ul muharir: S. Hasanov].-T.: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashri, 1998.-122 b.
4. Nodira Ey sarvi ravon:G‘azallar (Nashrga Tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi M.Qodiriva; Mas‘ul muharir A.Qayumov)-T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992.-144 b.
5. O‘zbek sovet adabiyoti tarixi:Un-t-lar va ped. Ins-tlarining filologiya fak.studentlari uchun darslik / A.Kattabekov, S.Mamajonov, B. Nazarov va boshqalar;[Mas‘ul muharir A. Sharopov],-T.:O‘qituvchi, 1989-464 b.
6. Nodira-Komila II-kitobi Toshkent-2004-yil, Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyi, Toshkent-2004-yil,Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2004 yil.-208 bet.
7. Malikaxon Nurutdinova. “Nodira ijodining o‘rganilishi tarixidan”// O‘zbekiston Milliy axborot agentligi – O‘zA Ilm-fan bo‘limi (elektron jurnal). (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2019-yil 28-martdagi 263/7.1 va 263/7.4-son qaroriga binoan tashkil etilgan). 2024-yil aprel oyi soni №4 (54). 150-154 betlar.